

“O‘zbek folklorshunosligi” nomli kitobi nashr etildi

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim boshlig‘i, professor M.Jo‘rayevning “O‘zbek folklorshunosligi” nomli kitobi nashr etildi.

Маматқул ЖҰРАЕВ

**ЎЗБЕК
ФОЛЬКЛОРШУНОСЛИГИ**



O'zbek xalqi asrlar bo'yi yaratilib, sayqallanib kelgan g'oyat benazir folklor merosiga ega. Ana shu bebaho durdonalarini yozib olish, nashr etish va ilmiy tadqiq etish igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ishdur. Xalq ijodiyotini ilmiy o'rganish borasida samarali mehnat qilgan zahmatkash olimlar va fidoyi folklor

to'plovchilarning faoliyati haqida keng ko'lamli ma'lumot beruvchi ushbu ilmiy-biobibliografik tadqiqot o'zbek folklorshunosligi fanining o'ziga xos ko'zgidir.

Tadqiqotda o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab 2020-yilga qadar o'zbek folklorshunosligi sohasida chop etilgan asarlar tahlilga tortilgan. Bu kitobni o'qish jarayonida o'zbek folklorshunosligining shakllanishi hamda turli davrlardagi tarixiy taraqqiyotiga doir qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

O'ylaymizki, ushbu biobibliografik ma'lumotnoma o'zbek folklorshunosligining fan sifatidagi shakllanish jarayoni va tadrijiy rivoji bosqichlari haqidagi bilimingizni boyitishga xizmat qiladi.

Kitob folklorshunoslar, etnograflar, filolog-talabalar hamda xalqimizning milliy qadriyatlari bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo'ljallangan.